MODDIY- TEXNIK RESURSLARI BOZORINI TASHKIL ETISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNDAN FOYDALANISH

Dilmurodov Hasan Fahriddin o'g'li
Magistrant, Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU

Annotatsiya:
Ushbu maqolada fermer xo'jaligi, moddiy-texnik resurslar, bozorni tashkil etish, rivojlangan mamlakatlar tajribalari kabilar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fermer xo'jaligi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari, minitexnologiyalar, CLASS kompaniyasining «Dominator-130» rusumli don o'rish kombaynlari kabilar.

Кириш

Mahsulot ishlab chiqarishda mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatuvchi buyumlar mehnat vositalari deyiladi. Inson mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, u mehnat predmeti deb ataladi. Boshqa tarmoqlarda bo'lgani singari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarmoqdagi barcha resurslarning eng muhim qismi hisoblanadi va unga quyidagilar kiradi:

- ✓ ajratib berilgan yer maydoni;
- ✓ bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari;
- ✓ ko'p yillik mevali daraxtlar va uzumzorlar;
- ✓ mahsuldor va ishchi hayvonlar;
- ✓ aylanma mablag'lar (urug'lik, o'g'itlar, YMM, kimyoviy vositalar, hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar);
- ✓ xo'jaliklarning ta'sischiligi asosida tashkil qilingan MTP, agrofirmalar hisobidagi mol-mulki.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, quyidagicha guruhlarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari;
- ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan moddiy-texnika resurslari yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va xizmatlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar, ekinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydaydigan va ekinlarga ishlov beradigan traktorlar, kombaynlar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar

kiradi. Korxonalarning ombor, idora binolari, ayrim inshootlari, aloqa vositalari, kompyuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika bazasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo‘jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog‘liq. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta’sirida bo‘ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hududiy xarakterga ega bo‘lib, har bir hududda tabiiy-iqlim sharoitlari har xil bo‘lishi tufayli har xil turdagi ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun turli hududlarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo‘ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo‘lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta’sir etadi. ishlab chiqarish mavsumiy bo‘lishi zahira urug‘lik, yemxashak, yoqilg‘i-moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi. bundan tashqari, moddiy-texnika resurslaridan yil davomida samarali foydalanishga ham salbiy ta’sir ko'rsatadi.

To’rtinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizmlardan (ish hayvonlari, mahsuldor mollar, ko‘p yillik mevali daraxtlar va hokazo) ibo.rat bo‘lib, ulardan samarali foydalanish uchun ularning biologik xususiyatlarini bilish talab etiladi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika bazasini yaratish va saqlash ko‘p miqdorda sarf-xarajatlar qilishni taqozo etadi. Moddiy-texnika resurslarning mahsulot yetishtirishda, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. Ular mehnatning xarakterini o'zgartirib, unumdorligi yuksalishini ta’minlaydi. Masalan, ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra, paxta yig‘im-terimida 1 kishi-soat mexanizator mehnati 26 kishi-soat qo‘l mehnati o‘rnini bosadi. 79 Fan-texnika taraqqiyoti moddiy-texnika resurslarining sifatini, holatini yaxshilash, yangilarini yaratishga xizmat qiladi. Shuning natijasida o‘simliklarning serhosil, tezpishar navlari, chorva mollarning mahsuldor zotlari, har tomonlama qulay va samarali, yuqori unumli va tejamkor texnikalar, ilg‘or texnologiyalar yaratiladi.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari quyidagi belgilari bo‘yicha turkumlanadi :

- barpo etilishi bo‘yicha;
- ishlab chiqarishda qatnashishiga ko‘ra;
- takror ishlab chiqarilishi bo‘yicha.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari mulk sifatida tarmoqning, korxonalarning iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarning moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi. Moddiy-texnika resurslarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘rni va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab

darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar talab darajasida bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog‘liq.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moddiy-texnik ta’minot masalasiga eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotganligi sababli 2020-yilda tarmoqqa xorijdan 1149 dona BT-150 va T-4A rusumidagi zanjirli va 459 ta MXM-140 rasumli haydov traktorlari hamda 386 ta yuqori unumli CLASS kompaniyasining «Dominator-130» rusumli don o‘rish kombaynlari olib kelindi. Lizing asosida qishloq xo‘jalik korxonalariga jami 48,9 mlrd. so‘mlik 3459 dona turli xildagi texnikalar yetkazib berildi. 2021-yilda ham 7547 ta texnika lizing, kredit asosida olish orqali texnika ta’minotini kuchaytirish ko‘zda tutilgan edi. Agrofirma, fermer xo‘jaliklari va boshqa xo‘jalik subyektlarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ularni zarur texnikalar, minitexnologiyalar va ixcham uskunalar bilan ta’minlashda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan turli ko‘rgazmalar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan va an’anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan qishloq xo‘jaligi uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalarning Xalqaro ixtisoslashtirilgan “Uzbekistan Agrominitech Expo” ko‘rgazma savdolari ham qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Ushbu ko‘rgazma-savdolari doirasida umumiy qiymati 25,2 mlrd. so‘m va 2,2 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan 878 loyiha bo‘yicha minitexnologiyalar va ixcham uskunalar olib kelib o‘rnatilgan. 2020-yildan ko‘rgazma savdosini minitexnologiyalar va ixcham uskunalar ko‘rgazma savdosini qishloq xo‘jaligining ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazila boshlandi. 2020-yil 23-sentabrda Toshkent shahrida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining ’’Food Week Uzbekistan” hamda mazkur sohaga oid zamonaviy texnologiyalaming ”Agri Tech Uzbekistan” xalqaro ixtisoslashgan ko’rgazmalari ish boshladi. Ushbu ko‘rgazmalarda mahalliy 82 ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda dunyoning 20 dan ortiq mamlakatidan 60 ga yaqin kompaniyalar o‘zlarining mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Shu kabi ko‘rgazmalar mazkur sohada faoliyat yurituvchi xorijlik tadbirkorlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo'yish va shu orqali sohaga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi. Xo’jalik faoliyatining zarur elementi sifatida moddiy-texnika resurslari muhim ahamiyatga ega. Moddiy-texnika resurslari tarkibiga ko’p turdagi unsurlar kiritiladi, ya‘ni ishlab chiqarishning moddiy vositalari bo’lgan binolar, inshootlar, mashinalar, urug’liklar, o’g’itlar, qurilish materiallari va yoqilg’i kiradi. Moddiy-texnika resurslarisiz qishloq xo’jaligi mahsulotlari (tovar va xizmatlari) ishlab chiqarishni tashkil etib bo’lmaydi. Qishloq xo’jaligida moddiy-texnika resurslari va boshqa turdagi resurslar o’rtasida juda katta bog’lanish mavjudki, bu bog’lanish bevosita ishlab chiqarishga ta‘sir qiladi. Masalan, ishlab chiqarishda bir turdagi moddiy-texnika vositalaridan (yemxashak, o’g’itlar, qurilish materillari va hokazo) foydalanish moddiy biologik resurslar

(mahsuldor chorva va parranda, baliq, suv, o'simliklar va hokazo) bilan birgalikda mahsulotning moddiy asosini tashkil etadi. Boshqa turdagi moddiytexnika resurslari (ish qurollari, mashinalar, texnologik uskunalar, yoqilg'i moylash materiallari, veterinar preparatlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, xo'jaligi asbob-uskunalari va hokazo) esa tayyor mahsulotni shakllantirishda faol ravishda ishtirok etadi. Moddiy-texnika resurslarining yana bir qismi (energetik mashina, uzatish uskunalari, transport vositalari, ishlab chiqarish bino va inshootlari va hokazo) ishlab chiqarish jarayonining umumiy shart-sharoitlarini ta'minlaydi. Yana bir qismi esa xo'jalik yuritishdagi shartsharoitlarni ta'minlab beradi. Bular umumxo'jalik xizmatlari uchun uskunalar va binolar, ta'mirlash ustaxonalari omborxonalar va hokazo. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining ba'zi bir tarmoqlarida (o'simlikchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, baliqchilik va boshqalar) moddiytexnika resurslarining bevosita yordami bilan mahsulot ishlab chiqarishning tabiiy-biologik jarayonlari amalga oshiriladi. Ba'zi tarmoqlarda esa (ovchilik, suv resurslarini qayta tiklash, sanoat va hokazo) chet mamlakatlarda inson qatnashmay turib, moddiy-texnika resurslari yordamida ishlab chiqarish amalga oshiriladi, ya'ni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash orqali moddiy-texnika resurslarining o'zi ishlab chiqarishni amalga oshiradi

Xulosa qilib aytganda, Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanishini yaxshilashda, jonli mehnat sarflari tejalishida, ekinlar hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligi oshishida, mahsulotlar sifatini yaxshilashda asosiy va aylanma vositalar muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, uning samaradorligini yuksaltirishda moddiy-texnika resurslarining, fan-texnika taraqqiyotining hamda ilg'or texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslarining zamonaviy, unumli, tejamli, sifatli turlari yaratiladi. Ulardan oqilona foydalanish tufayli yangi, samarali texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etiladi. Ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini tegishli ko'rsatkichlar tizimi yordamida aniqlash lozim. Kelajakda tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun barcha chora tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish zarur. Belgilangan yosh chegarasidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega boigan aholi mehnat resursi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Husanov R., Hamdamov D. Muqobil mashina-traktor parklari (MMTP). -T.: «Choipon», 20017. Murtazayev O., Ismoilov A.Q. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: «Mehnat», 2003.
2. Toshboyev A.J. Tarmoq iqtisodi va menejmenti. Uslubiy qo'llanma. -T.: TIQXMII, 2010. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. -T.: «Iqtisod-moliya», 2008

3. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G‘ofurov U.V., To‘xliyev B.K. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviyiqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qoilanma. -T.: Iqtisodiyot, 2009.